

MEDIALANDSHAFTDA DEZINFORMATSIYA: PAYDO BO‘LISHI, TARQALISHI VA RIVOJLANISHI

Iroda Fahriddin qizi FARHODOVA

magistrant

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

e-mail: farkhadovairoda@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada medialandshaftda dezinformatsiyaning shakllanishi, tarixiy ildizlari, zamonaviy shakllari va global axborot maydoniga ta’siri tahlil qilinadi. Real misollar, xalqaro tadqiqotlar va O‘zbekiston misolida tahlillar keltirilib, dezinformatsiyaga qarshi kurashish yo‘llari haqida ilmiy mulohazalar yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: axborot urushi, axborot xavfsizligi, dezinformatsiya, medialandshaft, raqamli manipulyatsiya, yolg‘on xabarlar.

ДЕЗИНФОРМАЦИЯ В МЕДИАЛАНДШАФТЕ: ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАСПРОСТРАНЕНИЕ И РАЗВИТИЕ

Ирода Фахриддин кизы ФАРХОДОВА

Магистрант

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

e-mail: farkhadovairoda@gmail.com

Аннотация

В данной статье проанализированы формирование дезинформации в медиаландшафте, её исторические корни, современные формы и влияние на глобальное информационное пространство. Приведены реальные примеры, международные исследования и анализ ситуации на примере Узбекистана, а также высказаны научные рассуждения о способах противодействия дезинформации.

Ключевые слова: информационная война, информационная безопасность, дезинформация, медиаландшафт, цифровая манипуляция, фейковые новости.

Dezinformatsiya – bu ataylab yolg‘on yoki chalg‘ituvchi axborotni tarqatish orqali jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatish strategiyasidir. Mazkur hodisa ayniqsa raqamli davrda, OAV va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi bilan yanada murakkab va evolyutsion shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayon “axborot ekologiyasi”ga jiddiy tahdid solib, haqiqatni yolg‘ondan ajratishni qiyinlashtiradi [1]. Zamonaviy medialandshaft, ayniqsa algoritmik tarmoqlar va sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlar oqimini boshqarishga imkon beradigan platformalar orqali

dezinformatsiyaning tezkor tarqalishi va ta'sir doirasining kengayishiga zamin yaratmoqda.

Dezinformatsiya atamasi ilk bor sobiq Sovet Ittifoqida XX asr boshlarida "дезинформация" shaklida paydo bo'lgan bo'lib, u xavfsizlik xizmatlari tomonidan xorijiy davlatlarga nisbatan ataylab noto'g'ri yoki soxtalashtirilgan axborot tarqatish strategiyasini anglatgan. Tadqiqotchilar Roy Godson va Richard Shultzning ta'kidlashicha, Sovet razvedka xizmatlari bu taktika orqali g'arb davlatlarining siyosiy qarorlariga ta'sir ko'rsatishga harakat qilgan [2]. Dezinformatsiya, ayniqsa, Sovet propagandasining asosiy quroliga aylangan.

Ikkinchi Jahon urushi davrida dezinformatsiya harbiy strategiya muhim qismiga aylandi. Har ikki tomon – Natsist Germaniyasi va Ittifoqchilar – o'z harbiy maqsadlariga erishish uchun keng ko'lamdagi dezinformatsion operatsiyalarni amalga oshirdi. Jumladan, 1944-yilda Britaniya va AQSh razvedkalari tomonidan olib borilgan "Operation Fortitude" operatsiyasi davomida Germaniya qurolli kuchlarini Normandiyaga emas, boshqa joyga hujum bo'lishiga ishonitirish uchun ataylab noto'g'ri axborotlar, soxta hujjatlar va matbuot xabarlar tarqatilgan [3]. Bu operatsiya "D-Day" muvaffaqiyatida muhim rol o'ynagan.

Sovuq urush yillarida esa dezinformatsiya global mafkuraviy kurash vositasiga aylangan. AQSh va SSSR o'z mafkuraviy ustunligini ta'minlash uchun turli ommaviy axborot vositalarini, jumladan, radioeshittirishlar, bosma nashrlar, hujjatli filmlar va adabiyotlarni qurol sifatida ishlatgan. Masalan, SSSR tomonidan g'arbiy jamiyatlar ichida ishonchsizlik va ziddiyat uyg'otish maqsadida tarqatilgan "Operation INFEKTION" kampaniyasi doirasida AQShning SIDA (AIDS) virusi ixtiro qilganligi haqida yolg'on axborot keng tarqatilgan edi [4; 20]. Bu kampaniya dezinformatsiyaning sog'liqni saqlash sohasidagi salbiy ta'sirini ko'rsatuvchi yorqin namuna sifatida tarixda qoldi.

Bugungi medialandshaftda dezinformatsiya nafaqat harbiy yoki siyosiy vosita, balki ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi global muammo sifatida qaralmoqda. Uning tarixiy ildizlarini tahlil qilish, bugungi kurash usullarini chuqurroq tushunishga zamin yaratadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng

ommalashuvi dezinformatsiyani tarqatishda ilgari bo'lmagan tezlik va ko'lamni yaratdi. Ijtimoiy platformalar, xususan Facebook, Twitter, YouTube va boshqa raqamli kanallar, foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent asosida faoliyat yuritgani bois, ularda tarqalayotgan ma'lumotlar ustidan nazorat past bo'lib, yolg'on va chalg'ituvchi axborotlar keng auditoriyaga osonlikcha yetib boradi [5]. Eng e'tiborga molik holatlardan biri bu 2016-yilgi AQSh prezidentlik saylovi davridagi dezinformatsion kampaniyalardir. AQSh maxsus prokurori Robert Mueller rahbarligida tayyorlangan tergov hujjatida Rossiyaga aloqador Internet Research Agency (IRA) nomli tashkilot Facebook va Twitter platformalarida minglab yolg'on akkauntlar orqali siyosiy qarashlarni manipulyatsiya qilganligi, jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar keltirib chiqarganligi va saylovchilarning qarorlariga ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan [6]. Tergov natijasida ushbu akkauntlar millionlab foydalanuvchilarga soxta yangiliklar tarqatgani va bu axborotlar algoritmik vositalar bilan kengaytirilgani isbotlangan.

Bundan tashqari, "Covid-19" pandemiyasi davrida dunyo dezinformatsiyaning sog'liqni saqlash sohasidagi salbiy ta'siriga guvoh bo'ldi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) bu holatni "infodemiya" deb atadi. Infodemiya – bu haqiqat va yolg'on aralashib ketgan axborot oqimi bo'lib, u odamlarning sog'lom qarorlar qabul qilishiga xalaqit beradi [7]. BBC'ning 2020-yilgi maxsus tahliliy reportajida "Covid-19" haqida "vaksinalar odamlarni genetik o'zgartiradi", "virus 5G antennalari orqali tarqatilmoqda" kabi noto'g'ri ma'lumotlarning Facebook, WhatsApp va YouTube orqali keng tarqalganligi va buning natijasida jamoatchilik orasida vaksinalarga nisbatan ishonchsizlik kuchaygani aytilgan [8].

Pew Research Center'ning 2021-yildagi so'rovlariga ko'ra, AQSh aholisi orasida "Covid-19" vaksinalari haqida noto'g'ri ma'lumotlarga duch kelganlar soni 60% dan ortiq bo'lgan, bu esa sog'liqni saqlash siyosatlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan [9]. Shuningdek, Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida ham dezinformatsion kampaniyalar pandemiyaga qarshi kurashda muhim to'siqlardan biri bo'lib xizmat qilgan [10].

Bugungi kunda medialandshaft tobora murakkablashib borayotgan, dinamik tusga ega global axborot makoniga aylangan. Endilikda bu makon nafaqat an'anaviy ommaviy axborot vositalari, balki bloggerlar, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari hamda sun'iy intellekt asosida ishlovchi algoritmlar orqali shakllanmoqda. Axborot ishlab chiqarish va tarqatish jarayonining demokratlashuvi, ya'ni har bir foydalanuvchining kontent yaratuvchiga aylanishi, axborot oqimini keskin kuchaytirdi. Biroq bu jarayon ishonchli va aniqligi tekshirilgan axborot ulushi bilan bir qatorda, dezinformatsiya va soxta kontent tarqalishini ham yengillashtirdi [1].

Tandok va boshqalar o'z tadqiqotida ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarning "emotsional kapital" orttirishga bo'lgan ehtiyoji – ya'ni ko'proq "layk", repost yoki izoh olishga intilishi – ularni tekshirilmagan, ba'zida esa noto'g'ri yoki manipulyativ kontentni ulashishga undashini ta'kidlaydi [11]. Bu esa axborot muomalasida yolg'on va haqiqat aralashib ketishiga, shuningdek, jamoatchilik ongida chalkashlik va ishonchsizlik paydo bo'lishiga olib keladi. Shu sababli, ijtimoiy platformalarda algoritmik targ'ibot, ma'lumotni shaxsiy afzalliklar asosida filtrlash (filter bubbles) va tasdiqlovchi xatolik (confirmation bias) kabi psixologik va texnologik omillar dezinformatsiyaning tarqalishini yanada kuchaytirmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli platformalarda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanilgan holda yaratilgan "deepfake" videolar, avtomatlashtirilgan botlar va troll fabrikalari orqali soxta kontentlar nafaqat ijtimoiy ongni shakllantirish, balki saylov jarayonlariga aralashish, sog'liqni saqlash siyosatlariga ta'sir ko'rsatish, hatto xalqaro siyosiy nizolarda psixologik qurol sifatida qo'llanmoqda [9].

Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, zamonaviy medialandshaftda dezinformatsiyaga qarshi kurashish uchun faqat texnologik vositalar emas, balki axborot madaniyati, media savodxonlik va institutsional darajadagi faktcheking tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda bu jarayonning xavfli ko'rinishlari ko'plab real misollar orqali o'z aksini topmoqda. Masalan, 2022-yilda Ukraina prezidenti Vladimir

Zelenskiyning “taslim bo‘laylik” degan mazmundagi deepfake videosi internetda keng tarqaldi va bu video Rossiya–Ukraina urushi davomida ukrainaliklar orasida ijtimoiy muhitga ta’sir ko‘rsatishga urinish sifatida baholandi [12]. Bu holat sun’iy intellekt texnologiyalari orqali haqiqatni soxtalashtirish imkoniyati qanday tahdidga aylanishi mumkinligini yaqqol ko‘rsatadi.

Yana bir misol sifatida, 2018-yilda Hindistonda WhatsApp orqali tarqalgan soxta xabarlar natijasida bir nechta odam ommaviy zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan. BBC xabariga ko‘ra [8], bu holatlar noto‘g‘ri ma’lumotlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkor tarqalishining qanchalik xavfli oqibatlariga olib kelishini isbotlaydi. Mazkur faktlar zamonaviy medialandshaftda dezinformatsiya va manipulyatsiya vositalarining kuchayib borayotganini, hamda ijtimoiy barqarorlik va jamoatchilik fikrini boshqarishdagi rolini ko‘rsatadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi axborot xavfsizligi va axloqiy me’yorlar nuqtai nazaridan jiddiy muhokamalarni talab qilmoqda.

Dezinformatsiya faqatgina yolg‘on xabarlar tarqatish bilan cheklanmaydi. U chuqurroq va murakkabroq ijtimoiy-siyosiy oqibatlariga ega bo‘lgan hodisa sifatida jamiyatda turli tizimlarga tahdid soladi. Xususan, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni, saylovlar natijalari, sog‘liqni saqlash siyosati va ijtimoiy ishonch tizimlari dezinformatsiyadan eng ko‘p zarar ko‘radigan sohalar sirasiga kiradi. UNESCO hisobotida dezinformatsiya fuqarolarning demokratik jarayonlardagi ishtirokini kamaytirishi, siyosiy polarizatsiyani kuchaytirishi hamda ijtimoiy birlikka putur yetkazishi mumkinligi ta’kidlangan [13]. Ayniqsa, pandemiya davrida tarqalgan soxta ma’lumotlar sog‘liqni saqlash siyosatiga ishonchsizlikni oshirib, ommaviy vaksinani rad etish holatlariga sabab bo‘ldi [7].

Tahlillarga ko‘ra, dezinformatsiyaning siyosiy tizimlarga ta’siri saylovlar natijasini noto‘g‘ri shakllanishiga, xalqaro munosabatlarda keskinlik kuchayishiga va axborot suverenitetining yo‘qolishiga olib keladi [14]. Misol uchun, 2016-yilgi AQSh prezidentlik saylovlari paytida ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan soxta kontent, Rossiyaning aralashuvi bilan bog‘langan holda, demokratik jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatgani haqida ko‘plab izlanishlar mavjud [15].

Shuningdek, sogʻliqni saqlash borasida notoʻgʻri axborot tarqatilishi, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda, jamoaviy immunitetni shakllantirishga qarshi boʻlgan harakatlarni kuchaytirdi. Bu esa nafaqat yirik epidemiologik xatarlarga, balki sogʻliqni saqlash tizimining ishonchliligiga ham putur yetkazdi [16]. Shu sababli, dezinformatsiyaga qarshi kurashni faqat axborotning toʻgʻriligini taʼminlash deb emas, balki fuqarolik ishtirokini, demokratik barqarorlikni va ijtimoiy ishonchni himoya qilishning strategik elementi sifatida koʻrish lozim.

Zamonaviy medialandshaftda dezinformatsiya murakkab va koʻp qirrali xavf sifatida namoyon boʻlmoqda. U faqatgina anʼanaviy OAV yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali emas, balki algoritmik filtrlash, sunʼiy intellekt vositalari, “deepfake” texnologiyalari va avtomatlashtirilgan botlar orqali ham keng tarqalmoqda. Ushbu jarayonlar natijasida axborot oqimi ustidan nazorat zaiflashmoqda, bu esa ommaviy ongning manipulyatsiya qilinishiga olib kelmoqda. Ushbu muammoga qarshi kurashishda kompleks va tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, jamiyatda media savodxonlikni rivojlantirish orqali foydalanuvchilarning axborotga nisbatan tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish zarur. Media savodxonlik fuqarolarga faktlar asosida qarorlar qabul qilish, yolgʻon xabarlardan himoyalaniish imkonini beradi. Shuningdek, axborot madaniyatini oshirish orqali axborotdan masʼuliyatli foydalanish, uning manbaini tahlil qilish va axborot etikasiga amal qilish kabi jihatlarni kuchaytiradi. Bu jarayonda taʼlim muassasalari, OAV, nodavlat tashkilotlar hamda hukumat muhim oʻrin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, dezinformatsiyaga qarshi kurashda yakkama-yakka vositalar emas, balki tizimli va koʻp darajali yondashuv muhimdir. Media savodxonlikni rivojlantirish, axborot madaniyatini shakllantirish hamda ishonchli faktcheking mexanizmlarini mustahkamlash – medialandshaft barqarorligini taʼminlashning asosiy tayanchlari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). “Information disorder: Toward an interdisciplinary framework for research and policy making”. Council of Europe.

2. Shultz, R. H., & Godson, R. (1984). "Dezinformation: Soviet Political Warfare". National Strategy Information Center.
3. Holt, T. (2004). The deception game: Codenamed operations of World War II. Skyhorse Publishing.
4. Boghardt, T. (2009). Operation INFEKTION: Soviet Bloc intelligence and its AIDS disinformation campaign. *Studies in Intelligence*, 53(4), 1–24.
5. Allcott, H., & Gentzkow, M. (2017). Social media and fake news in the 2016 election. *Journal of Economic Perspectives*, 31(2), 211–236.
6. Mueller, R. S. (2019). "Report on the Investigation into Russian Interference in the 2016 Presidential Election".
7. WHO. (2020). "Managing the COVID-19 infodemic: Promoting healthy behaviors and mitigating the harm from misinformation and disinformation".
8. BBC News. (2018). "WhatsApp: India lynchings blamed on fake news messages". <https://www.bbc.com/news/world-asia-india-44692974>
9. <https://www.pewresearch.org/short-reads/2021/09/15/americans-who-relied-most-on-trump-for-covid-19-news-among-least-likely-to-be-vaccinated/>
10. Islam, M. S., Sarkar, T., Khan, S. H., Kamal, A.-H. M., Hasan, S. M. M., Kabir, A., Yeasmin, D., Islam, M. A., Chowdhury, K. I. A., Anwar, K. S., Chughtai, A. A., & Seale, H. (2020). COVID-19–related infodemic and its impact on public health: A global social media analysis. *The American Journal of Tropical Medicine and Hygiene*, 103(4), 1621–1629.
11. Tandoc, E. C., Lim, Z. W., & Ling, R. (2018). "Defining "Fake News: A typology of scholarly definitions." *Digital Journalism*, 6(2), 137–153.
12. Hwang, T. (2022). "Deepfakes and the new disinformation war". Atlantic Council.
13. UNESCO. (2021). "Journalism, Fake News & Disinformation".
14. Bennett, W. L., & Livingston, S. (2018). "The disinformation order: Disruptive communication and the decline of democratic institutions". *European Journal of Communication*, 33(2), 122–139.

15. Bradshaw, S., & Howard, P. N. (2019). "The global disinformation order: 2019 global inventory of organized social media manipulation". Oxford Internet Institute.
16. Wilson, S. L., & Wiysonge, C. (2020). "Social media and vaccine hesitancy". *BMJ Global Health*.
17. Vosoughi, S., Roy, D., & Aral, S. (2018). "The spread of true and false news online". *Science*, 359(6380), 1146–1151.